
Vorislik huquqida vasiyatnoma rasmiylashtirishning afzaliklari

Vorislik vasiyat va qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi merosning ochilish joyi hisoblanadi.

Vasiyatnoma notarius tomonidan tasdiqlanishi lozim.

1. Shuningdek, fuqaro yashab turgan internat uylari, pansionat, davolanib yotgan tibbiyo muassasalar bosh vrachlari, ularning davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari yoki navbatchi vrachlari, shuningdek gospitalarning boshliqlari, internat uyi direktori yoki bosh vrachlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

3. qidiruv ekspeditsiyalari yoki shu kabi boshqa ekspeditsiyalardagi fuqarolarning ana shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

5. Ozodlikdan mahrum etish joylarida yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

Yuqorida sanab o'tilgan tartibda tasdiqlangan vasiyatnomalardan boshqa vasiyatnoma, jumladan vasiyat qoldiruvchi tomonidan yozilib, guvohlar, qo'shi-qo'shnilar imzosi bilan tasdiqlangan vasiyatnomalar yuridik kuchga ega emas.

Meros bilan bog'liq nizolar, asosan, qon-qarindosh bo'lgan ota (ona) va farzandlar, aka-uka, opa-singil vorislar o'rtasida yuzaga keladi. Meros mulkini taqsimlashda vorislar o'zaro kelishganlari eng maqbul yechim hisoblanadi. Nizolashish esa o'zaro qarindoshlik rishtalariga putr yetishiga sabab bo'lishi mumkin.

Meros qoldiruvchining voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shu jumladan farzandlikka olgan bolalari, shuningdek mehnatga qobiliyatsiz eri (xotini) va ota-onasi, shu jumladan uni farzandlikka olganlar, vasiyatnomaning mazmunidan qat'i nazar, qonun bo'yicha voris bo'lganlarida ulardan har biriga tegishi lozim bo'lgan ulushning kamida yarmini (majburiy ulush) meros qilib oladilar.

Elyorjon Ismoilov

2023-03-23 08:53:22